

# **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi bilan keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidladi**

Image not found or type unknown



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19 yanvar kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari Dmitriy Kozakni qabul qildi.**

Uchrashuv avvalida Dmitriy Kozak Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu [tilaklarini yetkazdi](#).

Yaqinda o'tgan oliy darajadagi uchrashuv va muloqotlarda erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash va ko'p qirrali munosabatlarni kengaytirishga kuchli sur'at bag'ishlagani alohida ta'kidlandi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yirik loyihalar va ustuvor gumanitar dasturlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish va uning salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim ekanini qayd etdi.

Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqelardan kelib chiqib mintaqadagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.